

---

## Farg'ona shahar hokimligining bildirishi

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahri Jo'ydam mahallasi ayrim fuqarolarining mahalla hududida tabiiy gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi kabi muammolar bo'yicha e'tirozlari e'lon qilindi.

Ushbu holat Farg'ona shahar hokimligining tegishli boshqarma va bo'limlari mutasaddi xodimlari tomonidan o'rganib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5633-son Farmoniga asosan "Obod mahalla" dasturiga kiritiladigan mahalla fuqarolar yig'inlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan kelishilgan holda shakllantirilishi belgilab qo'yilgan.

Shu bois, Farg'ona shahar hududidagi "Shodiyona", "Jo'ydam", "Oqariqobod" mahalla fuqarolar yig'inlarini 2020 yil "Obod mahalla" dasturiga kiritish taklifi berilgan.

"Jo'ydam" mahalla fuqarolar yig'inidagi 1219 ta xonadonda 6200 nafardan ziyod aholi istiqomat qilmoqda. Dastur doirasida ushbu mahalladagi ichki irrigatsiya tarmoqlarini qurish va ta'mirlash, sug'orish quduqlari qazish va ta'mirlash (obodonlashtirish), chiqindi yig'ish maydonlarini, tungi ko'cha yoritish tizimini barpo etish va ta'mirlash, elektr, gaz, ichimlik suvi ta'minoti tizimini yaxshilash, aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish, yakka tartibdagi uy-joylarni ta'mirlash kabi bir qator yechimi kutib turgan masalalarni bartaraf etish rejalashtirilgan.

2020-02-05 19:35:04